

**"EKONOMETRIK TAHLIL ORQALI ANDIJON
VILOYATIDAGI NAVIGUL KORXONASINING QAYTA
ISHLASH FAOLIYATLARI"
«ПЕРЕРАБАТЫВАЮЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ
«НАВИГУЛ» В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОГО АНАЛИЗА»
"RECYCLING ACTIVITIES OF NAVIGUL ENTERPRISE IN
ANDIJAN REGION THROUGH ECONOMETRIC ANALYSIS"**

Akramjonov Shohabbos Dilshodbek o'g'li

Акрамжонов — сын Шохаббоса Дилшодбека

Akramjonov is the son of Shohabbos Dilshodbek

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

stajyor-o'qituvchi; преподаватель-стажер; intern-teacher

Annotatsiya. Uzumchilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda uzum yetishtirish ko'plab viloyatlarda keng rivojlangan bo'lib, ushbu soha mamlakat iqtisodiyoti va aholining daromad manbalari uchun katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, uzum yetishtirish hajmi va uzumning bozorlaridagi narxlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish uzumchilik sohasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish uchun zarurdir.

Абстрактный. Виноградарство является одной из важных отраслей сельского хозяйства. В Узбекистане виноградарство широко развито во многих регионах, и эта отрасль имеет большое значение для экономики страны и источников доходов населения. С этой точки зрения анализ взаимосвязи объема производства винограда и цен на виноград на рынке необходим для обеспечения экономической стабильности в сфере виноградарства и эффективного управления производственными процессами.

Abstract. Viticulture is one of the important branches of agriculture. In Uzbekistan, grape growing is widely developed in many regions, and this sector is of great importance for the country's economy and sources of income for the population. From this point of view, the analysis of the relationship between the volume of grape production and the prices of grapes in the market is necessary to ensure economic stability in the field of viticulture and to effectively manage production processes.

Kalit soʻzlar: ekonometrik tahlil, uzumchilik, narx, qishloq xoʻjaligi, Andijon viloyati, uzum, ishlab chiqarish, korrelatsiya koeffitsenti, regressiya tenglamasi.

Ключевые слова: эконометрический анализ, виноградарство, цена, сельское хозяйство, Андижанская область, виноград, производство, коэффициент корреляции, уравнение регрессии.

Key words: econometric analysis, viticulture, price, agriculture, Andijan region, grapes, production, correlation coefficient, regression equation.

Qishloq xoʻjaligi Oʻzbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri boʻlib, uzum yetishtirish ushbu sohada muhim oʻrin egallaydi. Uzum mahsuloti nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorlarda ham katta talabga ega boʻlgan mahsulotlardan biridir. Uzumchilikning rivojlanishi mamlakatda agrar sohaning barqarorligini taʼminlashda, qishloq hududlarida aholi bandligini oshirishda hamda eksport hajmini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur izlanishda respublikada va Andijon viloyatida uzum yetishtirish hajmi hamda Andijon viloyatidagi bozor narxlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganish maqsadida ekonometrik tahlil amalga oshiriladi. Ushbu tahlil yordamida regressiya va korrelatsiya koeffitsiyentlari hisoblanib, oʻzgaruvchilar oʻrtasidagi statistik munosabatlar aniqlanadi. Shu asosda bir nechta asosiy maqsad vazifalar belgilab olinadi:

- Qishloq xoʻjaligida uzum yetishtirishning oʻsish dinamikasi va bozor narxlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganish.

- Andijon viloyatida uzum ishlab chiqarishning respublika miqyosidagi uzum ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini baholash.
- Ekonometrik tahlil qishloq xo'jaligida, xususan, uzumchilikda iqtisodiy omillar va ularning o'zaro ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Ekonometrik tahlil usullari yordamida uzum yetishtirish va narxlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish orqali sohaning hozirgi holati va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari prognoz qilish mumkin. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy uzum yetishtirish hajmi (Y), Andijon viloyatida yetishtirilgan uzum hajmi (X_1) hamda Andijon viloyati bozorlaridagi uzumning o'rtacha narxlar (X_2) o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish va ularning iqtisodiy tahlili amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelatsiya va regressiya tahlili yordamida statistik bog'lanish darajasi aniqlanadi (1-jadval)¹.

1-jadval

Yillar	Respublikada yetishtirilgan uzum, <i>ming tonna</i> Y	Andijon viloyatida yetishtirilgan uzum, <i>ming tonna</i> (X_1)	Andijon viloyati bo'yicha dehqon bozorlardagi uzumning o'rtacha narxlar, <i>1 kg. ming so'mda</i> (X_2)
2019	1603,3	77,6	9,524
2020	1606,9	76,8	10,823
2021	1695,3	81,6	12,776
2022	1760,6	81,7	13,772
2023	1731,7	80,9	21,786

Ushbu jadvalda Respublikamizda 2019-2023 yillar davomida yillar bo'yicha yetishtirilgan uzum (*ming. tonna*) da Y natijaviy omil sifatida berilgan. X_1 va X_2 ta'sir etuvchi omillar sifatida esa Andijon viloyatidagi yetishtirilgan uzum mahsulotlari va ularning bozordagi narxlar sifatida tanlangan.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra quydagi natijalarga erishildi (2-jadval)².

2-jadval

	Y	X_1	X_2
Y	1		
X_1	0,93116 2	1	
X_2	0,68280 1	0,56199 3	1

¹ O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyatida yetishtirilgan uzum mahsuloti va ularning bozordagi narxlar www.stat.uz

² MS Exell dasturi bilan korrelatsiya koeffitsenti natijalari

Respublikada uzum yetishtirish hajmi (Y) va Andijon viloyatida uzum yetishtirish hajmi (X_1) o'rtasidagi korrelatsiya koeffitsiyenti $r_{yx}=0.93$. Bu shuni bildiradiki, Andijonda uzum yetishtirish hajmi va respublikada umumiy uzum yetishtirish hajmi o'rtasida juda kuchli bog'liqlik mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki Andijon viloyatida yetishtirilgan uzum hajmi oshganda, respublika bo'yicha uzum ishlab chiqarish ham oshadi. Y va Andijon bozorlaridagi uzum narxi (X_2) o'rtasidagi korrelatsiya koeffitsiyenti $r_{yx}=0.68$. Bu o'rta darajadagi bog'liqlikni bildiradi. Ya'ni, narxlar oshganida umumiy uzum ishlab chiqarish hajmi ham ko'payadi, ammo bu bog'liqlik o'rtacha darajada kuchli. X_1 va X_2 omil o'rtasidagi korrelatsiya koeffitsiyenti $r_{yx}=0.56$. Bu esa ikki ta'sir etuvchi omillar bir biriga o'rtacha bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

Regressiya tenglamasi esa quydagi ko'rinishga ega bo'ladi. Respublikada uzum yetishtirish hajmi (Y) va Andijon viloyatida uzum yetishtirish hajmi (X_1) ga nisbatan regressiya $Y = - 600.39+28.60 X_1$ (3-jadval)³.

3-jadval

Y-пересечение	-600,393
Переменная X 1	28,5995
	1

Ushbu tenglama shuni anglatadiki, Andijonda qo'shimcha ishlab chiqarilgan har bir ming tonna uzum respublikada umumiy uzum ishlab chiqarish hajmini taxminan 28.6 ming tonnaga oshiradi. Bunda a_1 model 28.60 regressiya koeffitsiyenti bo'lib, o'zgaruvchilar orasidagi ta'sirni ko'rsatadi. a_0 model esa -600.39 bo'lib, X_1 nolga teng bo'lgandagi (Andijon viloyatida uzum yetishtirilmasa) respublikadagi uzum ishlab chiqarish hajmini bildiradi (bu holat real bo'lmasada, matematik natija sifatida qabul qilinadi).

Respublikada uzum yetishtirish hajmi (Y) va Andijon bozorlaridagi uzum narxi (X_2) ga nisbatan regressiya tenglamasi esa $Y = 1539.08+10.23 X_2$ ko'rinishga ega. (4-jadval)⁴.

4-jadval

³ MS Exell dasturi bilan regressiya tenglamasi natijalari

⁴ MS Exell dasturi bilan regressiya tenglamasi natijalari

Y-пересечение	1539,078752
Переменная X 1	10,22708231

Bu tenglamaga ko'ra, uzum narxi 1 ming so'mga oshganda respublikadagi umumiy uzum ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 10.23 ming tonnaga oshadi. a_1 model 10.23 koeffitsiyenti narx va ishlab chiqarish o'rtasidagi ta'sirni ko'rsatadi. a_0 model esa 1539.08 bo'lib, bu X_2 (narx) nolga teng bo'lgandagi (narx bo'lmagandagi) uzum ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi.

Xulosa. Andijonda uzum ishlab chiqarish respublikadagi umumiy uzum yetishtirishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu bog'liqlik korrelatsiya koeffitsiyenti orqali ham, regressiya natijasi orqali ham kuchli ekanligi ko'rsatilgan. Andijondagi uzum narxlari ham umumiy ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin bu ta'sir Andijondagi uzum ishlab chiqarish hajmi bilan solishtirganda bir oz kamroq. Ushbu iqtisodiy tahlil Y , X_1 va X_2 o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi hamda ular o'rtasidagi munosabatni raqamli ifodalab beradi.

Bibliografik ro'yxat

1. ST Iskandarov, [DS Toshpolatov. Assessment of Economic Efficiency of Vegetable Production in Greenhouses](#). //International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 20 (2), 2020, 251-257.
2. D.Toshpo'latov, B.Egamberdiyeva Ekonometrikadan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. T., MALIK PRINT CO, 2022, 202 b.
3. Guajaarti, D.N "Basic Econometrics" McGraw-Hill 5th edition 2009
4. Xodiyev B.Yu., Shodiyev T.Sh., Berkinov B.B. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. T., IQTISODIYOT, 2018, 178 b.
5. www.stat.uz